E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TENNISONNING “BURGUT” SHE’RINING MORFOLOGIK TAHLILI

Yagyayeva Elvina Baxtiyarovna

Farg’ona Politexnika Instituti.

Tillarni o’rgatish kafedrasi katta o’qituvchisi

G’aniyeva Nigora Olimbekovna

Farg’ona davlat universiteti magistranti.

Abstrakt: Ushbu maqolada Tennisonning xayoti va ijod yo’li va uning mashxur she’rlaridan biri “Burgut’ she’rining morfologik tahlili bayon qilingan. Adabiy vositalar tahlili she’r yoki har qanday badiiy asarning o’quvchiga yashirin bo’lgan va muallif aytmoqchi bo’lgan fikrni ochib beradi. Adabiy vositalar she’rda ifodalanayotgan tasvirni yorqin ko’rsatishga va uning ohangdor bo’lishiga xizmat qiladi. Muallif o’zining olti satrdan iborat bo’lgan ushbu she’rida bir nechta adabiy vositalardan foydalangan. Ushbu vositalar she’rda ifodalanayotgan mavjudotning ulug’vorligini tasvirlagan bo’lsa, she’riy jarayonda ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Kalit so’zlar: she’r, morfolgiya, metafora,tasvir, timsol, alliteratsiya.

Tennison 1809- yil 6 avgustda Angliyaning Linkonshire shahrida o’rta sinf oilasida tavallud topgan.U o’zining 60 yillik umri mobaynida nodir she’riy durdonalarni yaratdi. Tennison buyuk Viktoriya davri shoiri va o’zining progressiv munosabati bilan o’zining munosib mavqeyiga ega shoir sifatida tan olingan. Tennisonning buyukligi shoir laureatida emas, balki uning badiiy va poetik mahorati, tabiatga munosabati va lirikasi bilan o’lchanadi. U tanlagan mavzular xilma hil. Ijodi davomida klassika,romantika haqida, hayot, falsafa va din haqida yozgan. Uning otasi Jorj Kleyton ruhoniy edi va farzandini ta’limiga jiddiy e’tibor bergan. Shu sababli Tennison Qirol Edvard 6 ning grammatika maktabida keyinroq Kembrijdagi Triniti kollejida tahsil oldi va shu yerda kanslerlik unvoniga ega bo’ldi. O’qish mobaynida u Artur Hallam va Williyam Henri Bukfild bilan uchrashdi va keyinroq ular shoirning eng yaqin do’stiga aylandi. 1822- yilda uning “Shallot honim”, “Lotos yeyuvchilar” “ Adolatli ayollar orzusi “ kabi she’riy to’plamlari nashr etildi. Uning eng yaxshi she’rlari “ Urushni kesib o’tish” “Locks ley” kabi she’rlari hisoblanadi. Shoir 1892- yil 6-oktiyabrda vafot etdi va uning dafn marosimi Westminister Abbeyda bo’lib o’tdi.Tennisonning she’riyati uchun manba sifatida mavzu juda keng bo’lib, bular o’rta asr afsonalaridan boshlab tabiat hodisalari, maishiy vaziyatlargacha bo’lgan tasvirlarni o’z ichiga oladi. Jon Keats va boshqa romantizm shoirlarining ta’siri uning she’rlarida va tasvirida sezilib turadi.Tennison she’riyati tarixiy jihatdan qiziqarli, chunki u ijtimoiy hayotni aks ettiradi va uning siyosiy qarashlari, shuningdek zamonaviy intellektual va ma’naviy xayotni aks ettiradi.Lekin hech qachon ilm va din o’rtasida kelishmovchilikka bormagan aksincha o’zoro uyg’unlashtirishga erishgan.Uning so’z tanlash borasidagi moharati ayniqsa uning ritmning boshqara olishida seziladi. Masalan “Beat of break break break” jumlasida qayg’uning qanchalik tinimsiz ekanligini ifodalaydi. Tennisonning musiqiy sifatlardan mahorat bilan foydalanish orqali ritm va ma’noga urg’u beradi. Kichik jumlalarda ham onomatopeya, alliteratsiya va annonans orqali yorqin kombinatsiya yaratgan. Uning she’riyatida boy tasvirlar bilan tabiatning bir daqiqalik kuzatuvi, adabiyotdagi barcha go’zal qadriyatlarni qadrlash, so’z va iboralarni ishlatishda aniqlik va noyob lirizm kabi elementlarni ko’rish mumkin. Tennison

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

so’zlar orqali tasvir yaratishda Keatsdan o’rnak olgan. Uning deyarli barcha she’rlarida tabiat manzaralarining bezakli tasvirini ko’rish mumkin. Bunga misol qilib shoirning “Tabiat’ she’rini misol keltirish mumkin. Bunda shoir tabiatni ananaviy tarzda mehribon ona sifatida emas balki inson his tuyg’ularini aks ettirish uchun vosita sifatida foydalangan. Boshqacha aytganda, u insonlashtirilgan “tabiat”. Tabiat inson kayfiyatiga ko’ra ma’yus yoki quvnoq ko’rinadi. Tabiat ruhsiz va jonsiz lekin go’zal, shavqatsiz va befarq sifatida tasviri she’rning yanada ta’sir kuchini oshiradi.

Tanqidchilarning fikriga ko’ra shoir o’zining eng yaxshi uslubi, uning katta hajmli she’rlarida emas balki she’rlarning lirikasida. Tennison lirikasi oddiylikni ifodalamaydi balki shoirning tuyg’ularini, uning murakkab kayfiyatini ifodalaydi. Tennison Viktoriya davrining buyuk shoiridir. U skeptitsizm, chalkashlik va qo’rquv ruhini ham she’rlarida ko’rsatgan. Shoirning “ Uliss” drammatik monologi Robert Brownning monologi tarzida yaratilgan. Ushbu she’rda buyuk qahramonning xarakteri va Troya urushi Ulisning o’zi orqali ifodalandi.She’rdagi xar bir tasvir va qahramon alohida shaxs sifatida tasvirlangan. Shuningdek she’r davomida shoirning hayot borasidagi falsafiy qarashlari ham o’rin olgan bo’lib, shoir she’r davomida “ hayot bu harakat, passsiv tafakkur emas, agarda harakat bo’lmasa hayot zanglagan qilichga o’xshab qoladi va u o’z kuchini yo’qotganda o’z qadrini ham yo’qotadi”deb fikr bildirgan. Tennison shuningdek qisqa qo’shiq matnlarining ham nodir namunalarini yaratgan. Misol tariqasida “Break, break, break” (Sindirish, sindirish. Sindirish), The charge of light brigade” (Brigada nurining quvvati), “ Tears, tears” (Ko’z yoshlari, ko’z yoshlari), “ Crossing the bar” (Bardan o’tish) kabi she’rlarni keltirish mumkin.

Barcha yozuvchi va shoirlar o’rtasidagi mushtaraklik ularning barchasi insoniy hissiyotlarini yuksak tasvir va tuyg’ularni ifodalashidadir. Jahon adabiyotida turli jonzotlar nomi bilan ataluvchi she’rlar ham anchagina topiladi va ularning har biri o’ziga hos tasvirga ega. Hususan, burgut mavzusida Alfred Tennison va Abbas Mahaud Al Aqad ijodidagi she’rlar alohida ahamiyatga ega.

Alfred Tennisonning ijodida “ The Eagle” (Burgut) she’ri alohida o’rin egallaydi. Ushbu she’r birinchi marta 1851- yilda nashr etilgan. She’r o’zining jozibasi, yorqin ta’sviri bilan shoirning so’z tanlash borasidagi taasssuvurining qanchalik kengligini ko’rsatib bergan.

“The Eagle” poem.

He clasps the crag with croked hands;

Close the the sun in lonely lands,

Ring’d with the azure world, he stands.

The wrinkled sea beneath him crawls;

He watches from his mountain walls,

And like a thunderbalt he falls.

Ushbu she’r tabiatning ulug’vorligi bayramidir. Muallif o’quvchiga burgutning qanchalik ulug’vor ekanlgini va uning kuch qudratini yorqin tasvir va boy so’z boyligi bilan go’zal tasvirlab beradi. Tennison mavjudotni butun tabiat, muhit ustidan hukmron sifatida tasvirlaydi. Adib uni quyoshga yaqin va “yolg’iz yerlar’ ustida joylaydi, va ayni paytda uni inson, tabiat, yer yoki har qanday kuch yengga olmaydigan tengsiz mavjudot sifatida ifodalaydi. Dengiz esa

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

she’rning o’ziga hos tasviriga ega. Dengiz odatda buyuk, kuchli sirli manba sifatida ifodalanadi. Biroq ushbu she’rda “crawls” ya’ni emaklab yuradigan “wrinkles” ya’ni notekisliklarga ega narsa sifatida tasvirlangan. Bu holat esa mavjudotning hukmronligini ko’rsatishga xizmat qilgan, u shu qadar kuchliki suvning har qanday kuchi ham uni yengolmaydi. Suvning harakati emaklashga o’xshatilgan bo’lsa, mavjudotning harakati momaqaldiroqga o’xshatiladi. Ushbu tasvirlar she’rning kuchli ta’sirga ega she’r bo’lishini ta’minlaydi. Qushning qudrati, tog’lar ustidan hukmronligi har qanday kitobxonni o’ziga jalb etadi. Shoir burgutni qushlarning shoxi, ularning eng qudratlisi sifatida tasvirlaydi.Shunigdek u tabiat monarxi sifatida qaraladi. She’r ikki ajratilgan qisqa baytli she’r, ajratilgan uchta qatorli ikkita to’plamga (tersetlar) iborat bo’lib, butun she’r mavjudotni tasviriga atalgan.Bu tersetlar judda oddiy qofiya sxemasiga AAA va BBB namunasiga mos keladi. She’r hikoya qiluvchining so’zi bilan, burgutning qoyalar tepasida turganligi tasviri bilan so’z boshlaydi. Qoyalar ustida turgan burgut butun moviy dunyoni o’zining kuchli qo’llari bilan boshqara oladi. Shoirning fikriga ko’ra mavjudot hamisha hujumga tayyor.So’nggi baytda shoir o’zining hayratini ifodalaydi. She’rda iambik modelidan foydalanilgan. Bu shuni anglatadiki har bir chiziq ikkita zarbaning to’rtta to’plamini o’z ichiga oladi. Birinchisi urg’usiz ikkinchisi urg’uli. Tennison ushbu she’rining har bir qatorida she’r mazmunini chuqur ochib beruvchi she’riy vositalardan mahorat bilan foydalangan. Bularning asosiylari alliteratsiya sezura va shaxslashtirish. She’r davomida shoir burgutni shaxslashtiradi yani unga insoniy hususiyatlarni singdiradi va unga insoniy tuyg’uga ega obekt sifatida qaraydi. Mavjudotga hayvon emas balki inson kabi munosabatda bo’linganligi she’rning ta’sirchanligini oshirgan. She’r ikki kubletdan iborat bo’lib, xar bir qator deyarli bir xil hajma ega bo’lgan uchta qatorda iborat va xar bir qatorda sakkistadan so’z mavjud. Xar bir qatordagi so’zlarni hajm jihatdan bir xilligi tasvirlanayotgan obektning kuch qudratini ko’rsatishga uni yanada ulug’vor mukammal ko’rsatishga xizmat qilgan. Xar bir qator bosh harflar bilan boshlangan.She’rda ikkita nuqtali vergul, ikkita vergul va ikkita nuqta bor. Ushbu belgilar she’rning grafalogik jihatdan mukammaligini ko’rsatadi. She’r erkin va bog’langan morfemalardan tashkil topgan. Erkin morfemalar o’z ichiga leksikal va funksional morfemalarni o’z ichiga oladi. Leksikal morfemalar: clasp, crag, crook hand, close, sun, lonely, land, ring asure, world, stand, wrinkle, sea, crawl, watch, mountain, wall, thunderbalt va fall so’zlari hisoblanadi. Funksionl morfemalar he, the with, to, in, beneath, from, his, and, like va a noaniq artikllari qo’llanilgan. Bog’langan morfemalar inflektiv va derivativ morfemlarga bo’linadi. Inflektiv morfemalar –s qo’shimchasi clasps, hands, lands, stands, cawls, walls va falls so’zlarida, -es qo’shimchasi watches so’zida, va –ed qoshimchasi ringed so’zida qo’llanilgan.Derivativ morfemalar –ed crooked va wrinkled so’zlarida qo’llanilgan. She’rda faqat bitta “thunderbalt’ qo’shma so’zi mavjud. She’r mavjudotning dominat ekanligini ko’rsatganligi sababli she’rda ko’proq fe’llar clasps, ring’d, stands, crawls, watches, falls ishlatilgan. Fe’llar burgutning xarakatini ko’rsatib bergan. Ot turkumiga kiruvchi so’zlardan crag, hands, sun, lands, world, walls, mountain va thunderbalt so’zlari ishlatilgan va burgutning xarakat tasvirini ko’rsatib bergan. She’rda to’rtta sifat: crooked, lonely, azzure va wrinkled qo’llanilgan. Birinchi ikkita sifat qush bilan bogliq bo’lsa keyingi ikkita sifat dengz va osmonni tasvirlagan. She’rda faqat bitta ravish “close” bor. Shuningdek she’rda bog’lovchi “and”; olmoshlar “he’, “his” va “him’;qo’shimchalar “to”, “in’, “with’, “from”, “beneath” “like”; artikllar “a” , “the” ishlatilgan.”The Eagle” qisqa she’ri iambik usulida yozilgan. Birinchi, to’rtinchi va beshinchi qatorlar ot bilan boshlangan, ikkinchi qator ravish “close” bilan boshlangan, uchinchi qator fe’lning sifatdosh darajasi bilan boshlangan va oltinchi qator bog’lovchi “and” bilan boshlangan. Barcha qatorlar fe’lning aniq nisbat shaklida ifodalangan. Shuningdek birinchi va ikkinchi qatorda qo’shimcha + sifat + ot birikmasini

ko'rish mumkin. "the azure world' va " the wrinkled sea" birikmalarida sifat + ot shakli o'xshash holda kelgan.

Boshqa bir texnika alliteratsiya bo'lib, bunda so'zlar ketma ket ishlatilganda aynan bir xil yoki bir biriga yaqin bo'lgan tovushlar bilan boshlanadi va ular bir biriga yaqin talaffuz qilinadi. Bu jarayon she'rning ohangdorligini oshiradi.O'quvchiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi. Alliteratsiyaning yorqin namunasi sifatida "c" harfi bilan boshlangan birinchi banddagi so'zlarni misol keltirish mumkin. She'rdagi "clasps", "crag", "crooked" so'zlarini yonma yon qo'llagan holda qattiq "c' harfidan foydlangan. Bu she'r ma'noni aniqroq ochib berishga, mavjudotning qanchalik kuch qudratga ega ekanligini ta'kidlash uchun o'rinli qo'llanilgan va o'quvchini ushbu so'zlarni to'liq va to'xtalib talaffuz qilishga majbur qiladi. She'rning ikkinchi kupletida /l/ tovushi "lonely lands" birikmasida mavjudotning yagonaligini va dominant qush ekanligiga ishora qiladi. Allitertasiya bilan yonma yon holda konsonans ham she'rda qo'llanilgan. Konsonanas bu aynan bir hil bo'lgan yoki o'zora tovush yoki talaffuz jihatida bir biriga o'xshash bo'lgan undoshlarning yonma yon kelishidir.Ular unlilardan oldin yoki unlilardan keyin qo'llaniladi. Ikkinchi qatordagi /z/ deb talaffuz qilinuvchi "close" va "lands" so'zlari va uchinchi qatordagi "ringed" va "world" so'zlaridagi oxirgi /d/ tovushlari bilan konsonans yaratilgan. Ikkala /d/ va /z/ tovushlari qattiq jarangi tovushlari hisoblanadi.

Hulosa o'rnida shuni aytish muhimki ushbu she'r o'zining noyob mazmun mohiyati va she'riy vositalarning tasvirlanayotgan obrazga munosib tarzda ifodalanganligi, bu shoirning haqiqiy ma'nodagi so'z tanlash mahoratini, so'zni his qila olishi va uni ohangga solish mahoratini ko'rsatib bergan. Aynan shu jihatlar sababli ham ushbu she'r nafaqat shoir ijodida balki jahon she'riyati merosida ham o'z qiymatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Abrams, M.H. (1993). A glossary of literary terms. Bangalore: PRISM BOOKS PVT LTD.

[2] Alabi, V. A. (2007). Lexico-Syntactic, Phonological and Graphological Patterns Choices and Devices in Discourse. O.

Obafemi, G. A. Ajadi, V. A. Alabi (Eds.). Critical Perspectives on English Language & Literature. Ilorin: The Department of

English, University of Ilorin.

[3] Carter, R. (1989). What is stylistics and why do we teach it in different ways? In M. Short, (Ed), Reading, Analyzing,

and Teaching Literature. London: Longman.

[4] Carter, R. (1996). Look both ways before crossing: developments in the language and literature classroom. In R. Carter

and J. McRae (Eds.), Language, Literature & the Learner: Creative classroom practice (pp. 1-15). London: Longman.

[5] Crystal, D., and Davy, D. (1969). Investigating English Style. London: Longman.

[6] Cuddon, J. A. (1999). Literary terms and theory. England: Penguin Book.

[7] Harmon, W. (2009). A handbook to literature. New Delhi: Dorling Kindersley.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

[8] Leech, G. N. (1969). A Linguistic Guide to English Poetry. London: Longman.



WORDLY
KNOWLEDGE